

MAKTABLARDA KIMYO FANINI O‘QITISH

Odiljonova Muzifabonu Abbosxon qizi

Qo‘qon DPI talabasi

odiljonovamuzifabonu@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda oddiylikdan murakkablikka o‘tish, dars jarayonida o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan ma‘lumotlarni berib fanga qiziqishini orttirish

kalit so‘zlar: tuzlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kristall tuzilish, "Zanjirli reaksiya" o‘yini, "Mo‘jizakor xalqalar" o‘yini.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрен переход от простоты к сложности в преподавании химии, повышение интереса к науке за счет предоставления интересной информации учащимся во время урока.

ключевые слова: соли, лабораторные работы, кристаллическая структура, игра «Цепная реакция», игра «Чудо-люди».

ABSTRACT

In this article, the transition from simplicity to complexity in the teaching of chemistry, increasing interest in the science by providing interesting information for students during the lesson

keywords: Salts, laboratory activities, crystal structure, "Chain reaction" game, "Miracle People" game.


Hozirgi davr talabi kimyo fanini o‘quvchilarga yetkazishda mavzularni rang-barang qilib tayyorlash va o‘quvchi diqqatini tortadigan rahgli tasvirlar, animasiyalar, multimediyalar tayyorlash, shu bilar birga o‘quvchini izlanishga chaqiradigan turli o‘yinlarni o‘qituvchi tomonidan yetkazib berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo fanini eng kerakli, dolzarb mavzularidan biri "Tuzlar, ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossallari" bo‘lib, bu mavzuni tushuntirishda nazariya bilan birga amalay, y’ani laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish o‘quvchilarga ijobiy natijalar beradi. Fanga qiziqishi ortadi, o‘z ustida mustaqil ishlaydi, izlanadi, fikr yuritadi. Jumladan, tuzlarning umumiy ma‘lumotlari quyidagicha bo‘ladi: Tuzlar - kristall tuzilishdagi qattiq, turli rangdagi moddalar bo‘lib, suvda har xil erish qobiliyatiga ega. Tuzlar

tarkibida kristallizatsion suv tutishi mumkin. Kimyoviy xossalari. Tuzlar kimyoviy jihatdan faol moddalar bo'lib, ko'plab o'zgarishlarga uchraydi.


1. Tuzlar ishqorlar bilan ta'sirlashadi: yangi tuz va yangi asos yoki asosli tuz hosil bo'ladi:



2. Tuzlar kislotalar bilan ta'sirlashadi: yangi kislota va yangi o'rta tuz hosil bo'ladi:




Nordon va o'rta tuz hosil bo'ladi:




Faqat nordon tuz hosil bo'ladi:



3. Tuzlar o'zaro ta'sirlashadi: yangi tuzlar hosil bo'ladi, agar eruvchanligi yomon tuz hosil bo'lsa, bu almashinuv reaksiyalari oxirigacha boradi:




4. Tuzlar metallar bilan ta'sirlashadi: yangi tuz va metall hosil bo'ladi. Metallarning faollik qatorida turgan har bir metall o'zidan o'ng tarafda turgan metallni tuzidan siqib chiqaradi, lekin o'zidan chap tarafda turgan metallarni tuzlaridan siqib chiqara olmaydi. Magniydan chap tarafda turgan metallar (Li, K, Ba, Ca, Na va b.) suv bilan reaksiyaga kirishib ketishi tufayli tuzlardan metallarni siqib chiqarish uchun qo'llanilmaydi.




5. Ba'zi tuzlar qizdirilganda parchalanadi:



Guruhlar yangi mavzuni tushuntirib bo'lishgandan so'ng o'qituvchi mavzuni yakunlab, o'zining qo'shimcha fikrlarini bildiradi. So'ngra yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi "Zanjirli reaksiya" o'yini o'ynaladi.



Bu o'yindan keyin, tuzlarning nomlarini yodda saqlash uchun quyidagi "Mo'jizakor xalqlar" o'yini o'ynaladi. Bu o'yinda ushbu harflardan boshlab tuzlarning nomlari qatorlarga yozib chiqiladi. O'quvchilarning ushbu o'yinlarga berilgan javoblari, o'qituvchi tomonidan tekshirib baholanadi. O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan qanday tushunmagan joylari borligi va savollari so'raladi. Dars oxirida guruhlarining yiqqan rasmi kartochkalari sanab g'olib guruh aniqlanadi. Bu o'yinlar juda qiziqarli va bilim darajasini aniqlashga olib boradigan o'qin hisoblanadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**KITOBLAR**

1. *Omonov H.T. Kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish masalalari: Ped.fan.dokt. dis. -Toshkent: 1995.-265s.*
2. *Kurochkina E. Yu Ximicheskaya"Ugadayka" //Ximiya v shkole. -2000.*
3. *LR Asqarov., N.X.To'xtaboev, K.G.G'opirov Kimyo 9, 2010 yil "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 49-bet*
4. *A.G.Muflaxov, HT.Omonov, R.O.Mirzaev, Umumiy kimyo 11, Toshkent "O'qituvchi" 2002, 243 bet.*

JURNALLAR:

1. *Xalq ta'limi, 2002 yil 5 soni, 110-115 betlar*